



## V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Hududlar bo'yicha 2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **22 764** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 368** tani tashkil etdi. Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 372** tani yoki jamiga nisbatan **19,2 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar – mart holatiga (jamiga nisbatan foizda)**



Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (35,2 foizi), sanoat tarmog'ida (25,0 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (12,4 foiz), tashish va saqlash xizmatlarda (8,4 foiz) tashkil etilgan.

2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*

Urganch sh.	28,5
Xiva sh.	17,7
Yangibozor	16,3
Tupraqqal'a	14,1
Urganch	13,6
Yangiariq	12,9
Qo'shkupir	12,6
Xiva	12,5
Gurlan	12,0
Xonqa	11,5
Shovot	11,4
Bog'ot	11,1
Hazorasp	8,6

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 13,6 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yil 1- aprel holatiga nisbatan 2,3 birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 28,5 birlik, Xiva shahrida 17,7 birlik, Yangibozor tumanida 16,3 birlik, Tupraqqal'a tumanida 14,1 birlik va Urganch tumanida 13,6 birlikka yetdi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2024- yil 1- aprel holatiga ro'yxatga olingan	2024- yil yanvar - mart	
		tashkil topdi	tugatildi
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>31 945</b>	<b>1 368</b>	<b>661</b>
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	5875	174	79
Xiva	2564	93	20
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	2266	133	41
Gurlan	2174	98	66
Qo'shko'pir	2608	84	77
Urganch	3595	137	58
Hazorasp	1977	116	66
Tuproqqal'a	795	45	17
Xonqa	2343	89	41
Xiva	2353	94	37
Shovot	2072	154	54
Yangiariq	1825	81	60
Yangibozor	1498	70	45

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 1 368 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 174 ta, Shovot tumanida 154 ta, Urganch tumanida 137 ta, Bog'ot tumanida 133 ta, Hazorasp tumanida 116 ta, Gurlan tumanida 98 ta, Xiva tumanida 94 ta, Xiva sh. 93 ta, Xonqa tumanida 89 ta, Qo'shkupir tumanida 84 ta, Yangiariq tumanida 81 ta, Yangibozor tumanida 70 ta va Tupraqal'a tumanida 45 tani tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 63,0 foizi (2023- yil yanvar-martda 62,6 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2024- yilning yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 891,0 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 16,9 foizi) tashkil qildi;

- 3 645,2 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) boʻlib, oʻsish surʼati 104,2 foizni (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari yalpi mahsulotining 98,4 foizi) tashkil qildi;

- 1 329,5 mlrd. soʻmlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalarha jmining 53,4 foizi) oʻzlashtirildi va 2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 166,9 foizni tashkil qildi;

- 1 046,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 112,3 foizi) bajarildi va 2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 86,1 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,5 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,3 foizi), yoʻlovchi aylanmasining esa 102,0 foizga (umumiy yoʻlovchi aylanmasining 95,6 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,9 foizi yoki 2 788,4 mlrd. soʻmi (oʻsish 110,1 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 58,8 foizi yoki 2 137,9 mlrd. soʻmi (oʻsish 112,7 foiz) shakllantirildi;

- 60,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 65,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 64,3 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 64,7 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik  
subyektlarining ulushi**  
(2024- yilning yanvar- martida)

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 645,2	98,4
Sanoat	891,0	16,9
Qurilish	1 046,1	86,1
Chakana savdo	2 788,4	94,9
Yuk tashish, mln tn.	8,6	94,3
Yo‘lovchi tashish, mln.kishi	100,9	93,9
Eksport, mln. AQSh doll.	60,3	63,5
Import, mln. AQSh doll.	64,3	64,7

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da**

